

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.B.Karabayeva

Prunus persica var. Nectarina o'simligi mineral va aminokislota tarkibi	109
	BIOLOGIYA

Sh.Q.Yuldasheva, A.Z.Rasuljonov

Vespidae oilasi vakillarini tutish va ularga tuzoqlar qo'yishning ayrim usullari	114
G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev	

Markaziy Farg'ona hududida qayd etilgan gerpetofauna (Reptilia)ning Chelonia va Serpentes turkumi sistematikasi, morfologiysi va tarqalish areali	119
---	-----

I.B.Isaqov, A.K.Xusanov, K.Zokirov, O.T.Sobirov, N.D.Ibroximova

Farg'ona vodiysida tarqalgan unsimon qurtlarning (Homoptera: Coccinea, Pseudococcidae) zoogeografiyasiga oid ma'lumotlar	128
--	-----

M.A.Mamasolieva, L.A.Gafurova, O.B.Sharipov

Sug'oriladigan o'tloqi alluvial tuproqlarni oksireduktaza fermentlar faolligiga kremniyli o'g'itlar ta'siri (Buxoro vohasi misolida)	135
--	-----

Y.Qayumova, X.Komilova

Farg'ona viloyati ichki suv havzalarida invaziv turlarining tarqalishi	142
--	-----

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaviy tur tarkibi	147
---	-----

A.E.To'Iqinov

Janubiy Farg'ona kanali algoflorasining 2023-yil yoz mavsumidagi sistematik tahlili	151
---	-----

S.M.Xaydarov, J.G'Raximov

(<i>L.Minor</i>)ning biologik, morfologik xususiyatlari va turlar tarkibi, erigan kislorod darajasini aniqlash	155
--	-----

G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev

Yozyovon tabiat yodgorligida qayd etilgan tangachalilar turkumi (<i>Squamata</i>) vakillarining sistematikasi	158
---	-----

M.A.Muqimov

Farg'ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan oddiy qirraqorin balig'i (<i>Hemiculter Leucisculus</i>)ning morfoekologik xususiyatlari	164
---	-----

M.M.Мирзахалилов

Некоторые морфобиологические показатели обыкновенной маринки (<i>Schizothorax eurystomus</i>) Шахрихансая	171
---	-----

GEOGRAFIYA**R.Y.Xoliqov**

Landshaftlarni funktional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	175
---	-----

Р.И.Халиков, И.Я.Зикиров

Роль климатических факторов в формировании горно-долинных парагенетических ландшафтов	179
---	-----

O'.B.Badalov

Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari	185
--	-----

O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov

Madaniy landshaft: umumiy g'oyalalar va tushunchalar taddiq etishdagi yondashuvlar	190
--	-----

H.A.Abduvaliyev

Aholi hududiy tashkil etilishini o'rganishning geografik yo'nalishlari	196
--	-----

ILMIY AXBOROT**O.Q.Abdullayev**

Jismoniy ta'llimda o'quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashning ahamiyati xususida	202
---	-----

H.Arabbo耶v

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta'llim texnologiyasi va shart-sharoitlari	206
--	-----

LANDSHAFTLARNI FUNKTSIONAL RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ЛАНДШАФТОВ****FACTORS AFFECTING THE FUNCTIONAL DEVELOPMENT OF LANDSCAPES****Xoliqov Raximjon Yigitalievich¹**¹Farg'ona davlat universiteti g.f.n., dottsent**Annotatsiya**

Maqolada landshaftlarning funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni Farg'ona viloyati landshaftlari misolida ko'rsatib berilgan. Landshaftlarning funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ichida geologik va geomorfologik, hidrologik va iqlimiyl omillarning ta'siri va ularning o'zaro bog'liqligi asoslangan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va dala tadqiqotlari asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Аннотация

В статье показаны факторы влияющие на функциональное развитие ландшафтов на примере Ферганского вилоята. Среди влияющих на функциональное развитие ландшафтов особенно обоснованы геолого-геоморфологические, гидрологические и климатические факторы и их взаимосвязи. Научные выводы были сформированы на основе анализа литературы по теме и полевых исследований.

Abstract

The statistics show the factors influencing the functional development of landscapes using the example of the Fergana region. Among those influencing the functional development of landscapes, geological-geomorphological, hydrological and climatic factors and their relationships are especially justified. Scientific conclusions were formed based on an analysis of literature on the topic and field research.

Kalit so'zlar: Landshaftlar funksiyasi, flyuvial jarayonlar, paragenetik landshaft, morfologik landshaft, dinamik geotizimlar, namlik almashinuvi, geokimyoiy jarayonlar.

Ключевые слова: Функции ландшафтов, флювиальные процессы, парагенетический ландшафт, динамические геосистемы, обмен влаги, геохимические процессы.

Key words: Landscape functions, fluvial processes, paragenetic landscape, dynamic geosystems, moisture exchange, geochemical processes.

KIRISH

Landshaftlarning funksiyasi uning faoliyati bo'lib uzoq davrlar ichida modda va energiya almashinuv jarayonlari orqali ro'y beradigan barqaror jarayon hisoblanadi. Landshaftlarning funksionalligi ko'pincha ritmik rejimda bo'lib (sutkalik va yillik rejimida) aslida landshaftlarda ularni bir xolatdan ikkinchi xolatga o'zgartiruvchi xolatlar kuzatilmaydi [2.272c].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Landshaftlar dinamik tizim bo'lganligi uchun uning funksional rivojlanishi energetik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Energetik jarayonlarning asosiy omili quyosh energiyasi va uning transformatsiyasi, gravitatsion energiya hisoblanib, uning ta'sirida landshaftlarning funksiyasida abiotik migratsiya, namlik almashinuvi, geokimyoiy va biogeokimyoiy jarayonlar muhim ahamiyatga egadir.

Landshaftlarning funksional rivojlanishida ritmiklik mavjud bo'lib, uni ko'plab olimlar e'tirof etadilar. A.G.I Sachenko ritmiklikni landshaftlardagi progressiv rivojlanishning muhim jihatni deb hisoblaydi (1.5.24.) "Ritmiklik geografik qobiqda modda va energiya almashinuvining davriy analogidir degan edi F.N.Milkov (1966).

NATIJA VA ULARNING MUXOKAMASI

Landshaftlarning funksiyasi, fikrimizcha, nafaqat modda va energiya almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan davriy yoki ritmik jarayonlar, balki ularning funksiyalaridan iborat bo'lgan faoliyat turlari shuning bilan birga landshaftlarning funksionalligi ularni hosil qilgan komponentlarining o'zaro dinamik muvozanatiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki landshaftlarni hosi qilgan komponentlar o'zaro aloqalar orqali faoliyat yuritadi va landshaftlarning funksiyalarini belgilab beradi.

Bizning fikrimizga ko'ra landshaftlarning funksiyasi; Landshaftlarning modda va energiya oqimi tufayli barqaror dinamik holatini saqlab qolishi ya'ni funksional-dinamik tizim ekanligi;

2. Landshaftlarning funksiyasi muyyan faoliyat turi ya'ni uning tabiiy va resurs potensialidan foydalanish imkoniyatlarini inson tomonidan yuzaga chiqarish hisoblanadi. Landshaftlarning funksional rivojlanishini muyyan funksional-dinamik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib xorologik, tarkibiy va vaqtli dinamik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Xorologik dinamikada landshaftlarning makoniq chegaralari o'zgaradi. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan Farg'ona viloyati hududida bunday o'zgarishlar elementar landshaftlar tarkibida paragenetik bog'lanishlar orqali sodir bo'ladi. Qisqa masofalardagi gipsometrik farqlar xorologik o'zgarishlarga olib keladi.

Farg'ona viloyatining janubdan o'rabi olgan Oloy-Turkiston tizmalarining shimoliy ekspozitsiyalaridagi dinamik jarayonlar yonbag'ir bo'ylab qurumlar, surilmalar o'pirilmalar, flyuvial jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan o'zan deformatsiyalari, qayir deformatsiyalaridan iborat. Surilmalar So'x, Shohimardon daryolarining o'rta va yuqori oqimi hududlarida qiyaligi 30 dan ortiq tik yonbag'irlarda kuzatiladi. Tog' oldi zonasidan adirlar xalqasigacha bo'lgan hududlardagi daryo va soyliklarda qayir deflyuksiyasi kuchli, shuningdek Farg'ona viloyati hududlarining tog' oldi mintaqasida deflyuksiya jarayonlari o'ziga xos zinapoyasimon relyef shakllarini hosil qilgan. Deflyuksiya tuproq grunti gravitatsiya ta'sirida sekin asta pastga tomon yo'nalishi bo'lib yiliga o'rtacha 1,0 sm. gacha siljishni tashkil qiladi. Deflyuksiya Farg'ona viloyati hududidagi baland adirlar (Sho'rsuv, Qapchig'ay, Chimyon adirlari)da yaqqol ifodalanadi va o'ziga xos kichik pog'anali morfo landshaftlarni hosil qiladi. Adirlararo pastqamliliklar, adir orti qiya tekisliklarida, daryolarning konussimon yoyilmalarida funksional dinamik jarayonlar flyuvial jarayonlar bilan bog'liq bo'lib xorologik o'zgarishlar konussimon yoyilmalarning hosil bo'lishi, tabaqlanishi bilan bog'liqidir.

Farg'ona viloyati paragenetik va paradinamik landshaft tizimlarida bugungi kundagi xorologik o'zgarishlar yangi tektonik harakatlar bilan ham bog'liqidir. Yangi tektonik harakatlar ko'proq tog' va tog' oldi zonalarida yaqqol ifodalanmoqda. Adirlarning yuqori qismlarini ko'tarilishi hisobiga chekka bort qismlarining ochilib qolishi kuzatiladi. Bu jarayon bir muncha jadal ko'tarilayotgan Chimyon va Sho'rsuv adirlarida yaqqol ifodalanadi. Farg'ona viloyati hududidagi landshaftlarning funksional dinamik hususiyatlari bilan bog'liq xorologik o'zgarishlar morfodinamik jarayonlar bilan bog'liq morfolandshaftlarni, flyuvial, erozion-akkumulyativ va o'zan deflyuksion jarayonlari bilan bog'liq daryo-vodiy paradinamik tizimlarini hosil bo'lishi bilan nomoyon bo'ladi. Landshaftlardagi funksional dinamik jarayonlar ularning ichki ya'ni morfologik tarkibini o'zgarishiga olib keladi.

A.G.Isachenko landshaftlarning tarkibiy morfologik o'zgarishlarini "landshaftlarning morfologik tarkibini o'zgarishi hududning umumiyligi qiyaligiga bog'liq holda bir xil yo'nalishda asta sekin o'zgarishidan iborat" degan edi (A.G.Isachenko 156-bet).

Fargona viloyati ham landshaflardagi va ularning morfologik qismlardagi o'zgarishlar pozitsion joylanishiga bog'liqidir. Bu jihatdan Farg'ona vodiysi hududida uning janubiy qismida joylashgan Farg'ona viloyati hududi o'ziga xos relyef kontrastliliginini namoyon etadi. Landshaftlarning morfodinamik funksiyasi bilan bog'liq bo'lgan, morfotektonik, gidrodinamik omillar ta'sirida shakillangan quyidagi pog'onalarini ko'rishimiz mumkin.

- I.pog'ona-Sirdaryoning qayiri 50-400 metr kengligida, mutloqiy balandligi-340-400metr;
- II.pog'ona qayir usti I terrassasi. 12-16km kenglikda, mutloqiy balandligi-400-500metr;
- III.pog'ona qayir usti II terrassasi. 12-16km kenglikda, mutloqiy balandligi-450-550metr;
- IV.pog'ona-So'x, Isfara, Shohimardon, Isfayramsoyliklarining konussimon yoyilmalari, 8-12km kenglikda, mutloqiy balandligi-550-650metr;
- V.pog'ona-Past tog'lar va adirlar 12-16km kenglikda, mutloqiy balandligi-1000-1400metr;
- VI.pog'ona O'rta tog' 8km kenglikda, mutloqiy balandligi-1200-1800metr;

Bunday relyefning pog'onaviy tuzilishi viloyat hududida Sirdaryoga tomon umumiyligi qiyalikni, ya'ni pasayib borishini va shunga mos holda yuqorida pastga yo'nalgan modda va energiyaning migratsion oqimlarini hosil qiladi. Buning natijasida har bir pog'onada joylashgan paragenetik landshaftlarda morfologik o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi geokimyoiy jarayonlar ro'y beradi. Bunday xolatda landshaftlardagi morfodinamik jarayonlar yuqorida pastga tomon geokimyoiy oqimni bir tomonlama yo'naltiradi, landshaftlarning funksiyasi geokimyoiy oqimni boshqarish, uni yotqizish va qayta yotqizishdan iborat bo'ladi.

Landshaftlarning funksional rivojlanishi dinamik jarayonlar bo'lib, A.G.Isachenko (1991) tomonidan uning 3ta muhim ko'rinishlari asoslab berilgan: 1.Namlik almashinuvi; 2.Minerallar

GEOGRAFIYA

almashinuvi (geokimyoviy aylanma harakatlar, moddalarning beogen almashinuvi). 3.Energiya almashinuvi.

Landshaftlar funksional dinamik geotizimlar hisoblanib unda namlik almashinuvi meteorologik jarayonlar bilan bog'liqdir. Havoning harorati, atmosfera yog'inlari, bug'lanish kabi jarayonlar birinchi navbatda landshaftlarning suv ta'minotini belgilab beradi. Farg'ona viloyatining cho'l, chala cho'l-dasht va tog' landshaftlarida atmosfera yog'inlariga nisbatan bug'lanish miqdori yuqoriligi sharoitida vegetatsiya davrida namlik defitsiti kuzatiladi. Elyuvial landshaftlarda namlik ta'minoti atmosfera yog'inlari bilan bog'liqdir.

Farg'ona viloyatining barcha hududlarida yog'in miqdori butun Farg'ona vodiysidagi kabi orografik va meteorologik omillarga bog'liqdir. Yuqori haroratli kunlarning ko'pligi tufayli namlik bilan ta'minlanish ko'satkichlari past. Tuproq yuzasidan bug'lanish yiliga o'ttacha 1100-1400 mm.ni tashkil etadi. Bug'lanish miqdori yog'inlar miqdoriga nisbatan ancha ortadi. Qo'qon va Beshariqda 25-30 marotaba ortadi. Butun hudud uchun esa 15-20 marotaba ortadi. Shunga ko'ra gidrotermik koeffitsent (GTK) Beshariqda 0,11ga, Qo'qonda 0,08ga, Farg'onada 0,17ga, Quvada 0,18ga teng (R.Xoliqov 2020). Gidrotermik koeffitsent viloyat hududida namlik almashinuvining sustligini, namlik defitsitining yuqoriligini ko'rsatib turibdi. GTK Farg'ona viloyatida g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga (Oloy-Turkiston tog'lari) tomon ortib boradi va 1200-1500m. balandliklarda 0,37dan 0,65gacha ko'tariladi. Bu esa yog'in sochin miqdorining ortib borishi bilan bog'liqdir.

Farg'ona viloyati hududida namlik almashinuvi jarayonlari zonallik qonunyatlariga amal qilgani holda, mahalliy omillarning ham ta'siri kuchlidir. Mahalliy omillar tog'-vodiyligi yo'naliqidagi atmosfera tsirkulyatsiyasini hosil qiladi, bunday holatda qisqa muddatli yog'inlar hosil bo'lib tog' va tog'oldi hududlarida namlik miqdori ortadi. Lekin butun vegetatsiya davrida vodiyning barcha adir va tekisliklar hududida namlik defitsiti hosil bo'ladi.

Farg'ona viloyati hududidagi barcha landshaftlar uchun namlik tranzit havo oqimi, suv oqimi (yer usti, yer osti) bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra barqaror namlik rejimi kuzatilmaydi. Elyuvial landshaftlardan superakval landshaftlarga tomon namlikning loterial (gorizontal) va radial (vertikal) oqimi hosil bo'ladi. Markaziy Farg'onaning og'ir drenajli gidromorf rejimdagagi landshaftlarida yer osti suvlarining Sirdaryo tomon sust harakati tufayli vertikal harakati sodir bo'lib, terlovchi geokimyoviy rejimdagagi namlik almashinuvi sodir bo'ladi. Ya'ni tuproq gruntuning quyi qismidan kapilyar suvlar tuproq yuzasiga ko'tarilib, tuzlarni xaydalma qatlama olib chiqadi.

Farg'ona viloyatida namlik almashinuvining notekisligi geomorfologik, iqlimiyligi va gidrogeologik omillarga bog'liqdir. Namlikni aylanishida muhim omil sug'orish bo'lib viloyatning deyarli tog'oldi, adirlar, adirlararo, adir orti qiya tekisliklari, konussimon yoyilmalar, ularning periferik (etak) qismlari qadimdan sug'orilib kelinadi. Namlik balansida Sirdaryoning o'rni katta bo'lib, daryo va soyliklar unga yetib kelmasada, sug'orma suvlar kollektorlar zovurlar orqali tashlanadi. N.M.Reshetkinaning(1956) ma'lumotlariga ko'ra yer osti suvlarining 44,5% tuproq gruntu orqali bug'lanadi va 17,5% kollektor zovurlar orqali chiqib ketadi. Markaziy Farg'ona hududidan bug'lanish va transpiratsiya orqali chiqib ketayotgan sizot suvlarining yillik o'ttacha miqdori $6000\text{m}^3\text{G}^{-1}$ ni tashkil etadi

Farg'ona viloyati landshaftlarining funksional rivojlanishida namlik almashinuvining ahamiyati kattadir. Namlik almashinuvida atmosfera yog'inlarining ahamiyati katta bo'lib 400-500m balandliklarda yog'in miqdori 85-160mm.gacha, 800-1000m.balandliklarda- 500mm.gacha, 1800-2000m. balandliklarda 600-700mm.ga yetadi. Tabiiy namlik bilan ta'minlanish 600-800m. balandliklardan boshlanib 75-90% ni tashkil etadi. Markaziy Farg'onadan tashqari hududning barcha tekislik va past adirlar zonasida yog'in miqdorining kamligi hisobiga tuproqda namlik defitsiti (namlik 75% dam kam) sodir bo'ladi. Umuman olganda Farg'ona viloyatining hududida namlik rejimining 2 ta tipi: yuvilmaydigan va terlovchi tipi hosil bo'ladi. Yuvilmaydigan tipga viloyatning barcha tog'oldi, tog'li va baland adirlar hududlari kirib yog'in miqdori bug'lanishga yaqin, namlik atmosfera yog'inlari orqali tuproqni faqat yuza qismigacha kirib boradi va o'simliklarni namlantiradi.

Farg'ona viloyatining Markaziy Farg'ona va unga tutash pastqam transakkumlyativ landshaftlarida namlik rejimining terlovchi tipi hosil bo'ladi va bug'lanish hisobiga sho'rланish yuzaga keladi.

Farg'ona viloyati landshaftlarining funksional dinamik rivojlanishida mineralllar almashinuvi ya'ni geokimyoiy jarayonlarning ham mavqeい yuqoridir. Uning asosiy energetik manbai quyosh energiyasining transformatsiyasi, yonbag'ir jarayonlari ya'ni gravitatsiya hisobiga abiotik migratsiyaning hosil bo'lishi hisoblanadi. Migratsion jarayonlarning dinamikligi geologik, geomozfologik, gidrodinamik, gravitatsion omillarga bog'liq bo'lib tabaqaviy tuzilishga ega. Abiotik migratsiya tog' va tog'oldi hududlarida ellyuviy, dellyuviy, tog' etaklaridagi qiya tekisliklarda va konussimon yoyilmalarda prolyuviy, ularning etaklarida va yoyilmalar oraliqlarida allyuviy, ya'ni allyuvial jarayonlardan iborat, shunga ko'ra eroziya bazisi tekisliklar tomon surilib boradi hamda yotqiziqlarning tabaqalanishi ro'y beradi. Farg'ona viloyati hududida landshaftlardagi funksional o'zgarishlarga ta'sir etuvchi abiotik migratsiyaning 2 turini ajratishimiz mumkin:

Birinchi turi mexanik migratsiya bo'lib, morfodinamik jarayonlar (surılma, o'pirılma, deflyuktsiya)dan iborat. Mexanik migratsiyaning asosiy sababi nurash jarayonlari bo'lib uning jadalligi yuqoridan pastga tomon sekinlashib boradi.

Ikkinchi turi mintaqaviy yuvilish bo'lib doimiy suv oqimlari orqali sodir bo'lgan gidrodinamik jarayonlardir.

O.P.Heglovaning(1984) olib borgan tadqiqotlariga ko'ra mintaqaviy yuvilish adirlar mintaqasida 50 tG'km yilni, tog' oldi hududlarida 200-500tG'km yilni, tog'li hududlarida 500-1000tG'km yilni tashkil etadi. Mexanik migratsiya va mintaqaviy yuvilish jarayonlari landshaftlarning morfologik tuzilishiga ta'sir etib vertikal va gorizontal tabaqalanishiga olib keladi. Landshaftlarning funksional rivojlanishi uning dinamikasiga bog'liqligini yuqoridagi misollar isbotlab beradi. Landshaftlar yaxlit va ochiq geotizimlar bo'lganligi uchun funksional dinamik jarayonlar landshaftlararo va komponentlararo ro'y beradigan modda va energiya almashinuviga bog'liqdir. Landshaftlardagi funksional dinamik jarayonlarning muhim bo'g'ini biotik aylanma harakatlar hisoblanadi. Landshaftlarning barqaror rivojlanishi va funksiyasi uning muhim komponenti hisoblangan o'simliklar qoplaming landshaftlar uchun qiladigan "hizmati" ga bog'liqdir. Biotik modda va energiyaning aylanishi doimiyligining muximligi haqida V.I.Vernadskiy va K.Berlar ham etirof etishib uni "ehtiyyotkorlik qonuni" deb ataydilar. K.M.Petrovning fikriga ko'ra biosferada biotik modda almashinish jarayonlarining amalga oshiruvchi 3 guruh organizmlar bor; 1) produtsent-ya'ni yashil o'simliklarda ro'y beradigan fotosintez, bakteriyalar hosil qiladigan xemosintez bo'lib ular birlamchi organik moddani hosil qiladi; 2) Konsument organik moddani yirtqich jonzodlar tomonidan istemol qilinishi; 3) Redutsent ya'ni mikroorganizmlar faoliyati tufayli o'lik organik massani mineral moddaga aylanishi [3.207-208b].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan barcha landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etadigan jarayonlar yagona tizim hisoblanib modda va energiyaning harakati tufayli landshaftlarda morfodinamik o'zgarishlar yuzaga keladi. Shuning bilan birga landshaftlarning pozitsion holatiga ko'ra tabaqalanish ro'y beradi. Har bir landshaftlar doirasida va komponentlar o'rtasida funksional rivojlanish vertikal va gorizontal aloqalardan iborat bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Исащенко А.Г Ландшафтovedение и физико-географическое районирование.учебник. М.: "Высшая школа", 1991, -366с
- Охрана ланшафтов. Толковый словарь М.;Из-во "Прогресс", 1982, -271 с
- Петров К.М. Естественные процессы востоновления опустошенных земель. Учеб. пос. Из-во С-Петербургского у-та., 1996, 218 с
- Холиков Р.Й. Фаргона водийси монография Т.Навруз нашрёти 2020 й 168 б.
- Холиков Р.Й., Абдурахмонов Д.М. Фаргона водийси парагенетик ландшафтларини морфологик табақаланишига таъсир этувчи омиллар. Ўзбекистон География жамияти ахбороти 52 жилд 2018 й 37-39 б.
- Щеглова О.П. Генетический анализ и картографирование стока взвешенных наносов рек Средний Азии. Ленинград. Гидрометео издат. 1984. 127 с.
- Решеткина Н.М. Ферганский гидрогеологический бассейн. ДАН Уз ССР, 1956. № 6